

## XORIJIY TILDAGI FRAZEOLOGIZMLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALALARI

Xudoyqulov Behzod<sup>1</sup>, Tursunov Umidjon<sup>2</sup>

<sup>1</sup>DTPI o'qituvchisi

<sup>2</sup>SamDCHTI magistri

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** Frazeologiya, ibora, frazeologik birlik, tarjima, ko'chma ma'no, ekvivalent.

### ANNOTATSIYA

Ma'lumki, frazeologizmlar har bir xalqning noyob boyligidir. Frazeologizmlarni turli tomondan o'rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi. Ushbu maqola frazeologizmlarni xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish masalalariga bag'ishlangan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Xorijiy tillarni o'rganishda nutqiy so'zlashuv ijtimoiy – madaniy kommunikativ muloqot malakalarini takomillashtirish bilan bir qatorda tilning funksional shakllari va uslublarini egallash o'rganilayotgan til to'g'risida nazariy bilim olish hamda olingan bilimlarni kasbiy yo'nalish bo'yicha va ish faoliyatida ilmiy izlanishlar olib borish uchun amalda qo'llay olishni o'rgatishni nazarda tutadi.

Tilning inson bilan o'zaro, chambarchas bog'liqligini hisobga olgan holda uning ongi, dunyoqarashi, ruhiy va amaliy faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antropologik tilshunoslik nazariyasining frazeologik tizimga tatbiq etish zaruriyati tabiiy va muhim voqelikdir.

Bizga ma'lumki, frazeologizmlarni alohida tarjima qilib yoki ajratib bo'lmaydi. Bu esa bir til doirasidagi frazeologizmlarni boshqa til egalariga tushuntirishda noaniqliklarni keltirib chiqadi. Ammo bu ularning boshqa tildagi muqobilini keltirish, uni tarjima qilish mumkin degani emas.

Frazeologizmlarning ko'chma ma'nolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda o'sha xalqning ba'zi urf-odatlarini aks ettiradi.

Ushbu jihatlar bir tildan boshqa bir tilga tarjima jarayonida ham ko'zga tashlanadi. Masalan quyidagi misollarda ingliz tilidagi ayrim iboralarning tarjimasi va ularning ma'nolarini aks ettirishga harakat qilamiz:

1. See pink elephants - Kimdir haqiqatda mavjud bo'lmagan/tasavvuridagi narsalarni ko'rganda ishlatiladigan ibora.
2. Pink Slip - ishdan bo'shatish to'g'risidagi bildirishnoma.
3. In the pink of something – sog'ligi juda yaxshi degan ma'noni anglatadi.
4. To be shown the red card - bu futbol terminologiyasidan kelib chiqqan va ishdan bo'shatish degan ma'noni anglatadi.
5. To be in the red - kreditning oshishi, bankdan qarzdor bo'lish yoki biron bir muassasadan qarzdor bo'lis.
6. To be out of the red - qarzdan qutulish.

7. A red flag - Biror narsa noto'g'ri yoki to'g'ri ishlayotganligi haqida signal.
8. Blood red - biror narsaning quyuq qizil rangini tasvirlash uchun ishlatiladi.
9. Beet red - to'q qizil rangni tasvirlash uchun ham ishlatiladi, odatda yuzning rangi uchun.
10. Red in the face - yuzi qizil, (xijolat bo'lgan).

Quyidagi misollar orqali esa Italian tilidagi frazeologizmlarning tarjimalari va ekvivalentlarini ko'rib chiqamiz:

- *Abbassare le ali* – So'zma – so'z tarjimada Qanotini pasaytirmoq, Ibora sifatida Oddiyroq bo'lmoq, o'zini oddiy tutmoq. Bu iboraning sinonimi - *Volare più basso*.
- *A casa del diavolo* - Uzoq joyga degan ma'noni anglatadi.
- *A casaccio* – Tasodifiy, e'tiborsizlik bilan.

Masalan: *“Ho fatto la spesa a casaccio e adesso non ho gli ingredienti che mi servono per cucinare la cena!”* – Men e'tiborsizlik bilan harid qilganim tufayli, kechki ovqat tayyorlashga kerakli mahsulotlar yetishmayapti.

- *Acqua in bocca* - So'zma – so'z tarjimada, og'izda suv deb tarjima qilinadi, Ibora sifatida Birovga biror narsani aytmaslik, sir saqlash ma'nolarida ishlatiladi. Masalan: *“Acqua in bocca, è un segreto”* - Hech kimga aytma, bu sir.
- *Affogare in un bicchier d'acqua* - So'zma – so'z tarjimada, Bir stakan suvda cho'kmoq deb tarjima qilinadi, Ibora: Juda oddiy masalalarni ham hal qila olmaydigan/Osongina shoshib, vahimaga tushib qoladigan ma'nolarida ishlatiladi.
- *Andare a letto con le galline* - So'zma – so'z tarjimada, Tovuqlar bilan uyquga ketish deb tarjima qilinadi. Ibora: Erta uxlashga boorish ma'nosida ishlatiladi.
- Masalan: *“Stasera devo andare a letto con le galline perché domattina devo alzarmi all'alba”* - Bugun ertaroq uxlashim kerak. Chunki ertaga erta tongda uyg'onishim/turishim kerak.
- *Andare in brodo di giuggiole* - So'zma – so'z tarjimada, Jujubu bulyoniga borish deb tarjima qilinadi. Ibora – Juda baxtli va haqiqatdan xursand bo'lish ma'nosida. Masalan: *“Quando ho detto a mamma che l'avrei portata all'opera, è andata in un brodo di giuggiole”* – Men oyimni Operaga olib borishimni aytganimda, u juda xursand bo'ldi.
- *Andare per la maggiore* – Juda mashhur bo'lmoq.

Masalan: *“La cucina giapponese va per la maggiore in questo periodo”* – Bu davrda yapon oshxonasi juda mashhur hisoblanadi.

- *Alla carlona* – O'ziga xos e'tibor bilan qilinmagan/bajarilmagan narsa.

Masalan: *“Come ti sembra questo vestito, mamma?” “Mi sembra un po' fatto alla carlona”* - Oyi, bu ko'ylak haqida qanday fikrdasiz? Menga, uncha yaxshi etibor bilan bichilmagandek tuyulyapti.

- *Alla chetichella* - Ibora – Yashirincha, pinhona ma'nolarini beradi.

Masalan: *“Mario e Paola se ne sono andati dalla festa alla chetichella, nessuno li ha visti”* – Mario bilan Paola yashirincha bayramga borishdi, hech kim ularni ko'rmay qoldi.

- *All'acqua di rose* – Bu ibora - Yuzaki, e'tiborsizlik bilan bajarilgan ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: *“Come ti è sembrata la lezione di filosofia?” “Secondo me è stata un po' all'acqua di rose, il professore non ha spiegato molto in dettaglio”* - Falsafa darsi haqida qanday fikrdasan? Ozigina yuzaki bo'ldi, o'qituvchi hijjalab tushuntirmadi.
- *Altro giro, altro regalo* - So'zma so'z tarjimada, Yangi bir etap, yangi bir sovg'a deb tarjima qilinadi. Ibora – Biror narsani qayta va qayta bajarishingiz kerak bo'lganda ishlatiladi.

Turli xalqlar frazeologik birliklarning har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladi. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar. Ma'no

va uslubiy vazifa jihatlaridan o'zaro mos ayrim frazeologik ekvivalentlar tarkibidagi ba'zi predmetlar nomlari bir-birlaridan son shakllari jihatlaridan farq qiladiki, tarjima jarayonida ushbu tafovutli holatga ilmiy ijodiy yondoshish adekvat vositasi yaratishning garovi sanaladi.

Mazkur maqolada keltirilgan ingliz va italyan tillaridagi iboralar va ularning semantik tahlili – xorijiy tilini o'rganuvchi talabalarga foydali manbaalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gianluca Aprile. (2008). Italiano per modo di dire//Alma Edizione.
2. Lapucci C., (1990) Dizionario dei modi di dire della lingua italiana, 1st ed., Milano.
3. Qudrat Musaev. (2005) "Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik.T.: «Fan» nashriyoti, -13 b.
4. Rahmatullaev Sh.U. (1992) O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati.
5. Rahmatullaev Sh. (1970) Nutqimiz ko'rki. - Toshkent: Fan, – B. 56.
6. Sayfullaeva R.R., Mengliev B.R., Boqieva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. (2009) Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, – 122 b.
7. Xudoyqulov, B. (2023). Translation of Italian Phraseologisms into Uzbek Language. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(3), 99-101.
8. Xudoyqulov, B. (2023). A REVIEW ON THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN ITALIAN LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 33, 212-214.